



## GLOBAL EKOTURIZM MODELLARI TAHLILI: O'ZBEKISTON BARQAROR RIVOJLANISHI UCHUN ADAPTIV TADBIQ ETISH STRATEGIYALARI

*Xasanova Nigora Nizomovna*

*Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi*

*Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti,*

*Sambhram universiteti 2-bosqich magistranti*

***O'zbekiston***

***Email: [nigorax@554gmail.com](mailto:nigorax@554gmail.com)***

***Telefon: +99897 436-06-27***

**Annotatsiya:** Hozirgi tezkor davrda ekologik turizm global miqyosda barqaror iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilishni uyg'unlashtiruvchi strategik yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Ushbu maqolada Kosta-Rika, Shvetsiya, Germaniya va Nepal kabi davlatlarning ekologik turizmni rivojlantirishdagi ilg'or tajribalari tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Xususan, Kosta-Rikaning ekologik soliqlar tizimi, Shvetsiyaning eko-etiketlash amaliyoti hamda Nepalning mahalliy hamjamiyatga asoslangan ekoturizm (Community-Based Ecotourism – CBET) modeli asosida O'zbekistonda milliy eko-sertifikatlash tizimini yaratish, ekologik to'lovlar mexanizmini joriy etish va mahalliy aholining turizmga faol ishtirokini ta'minlash taklif etiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda ekologik turizmni barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish uchun ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Ekologik turizm, barqaror rivojlanish, xalqaro tajriba, eko-sertifikatlash, mahalliy hamjamiyat. milliy bog'lar, turizm infratuzilmasi, ekologik soliq.



## АНАЛИЗ ГЛОБАЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ ЭКОТУРИЗМА: АДАПТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ РЕАЛИЗАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

*Хасанова Нигора Низомовна*

*Джизакский областной центр педагогического мастерства*

*Методист отдела методической службы,*

*магистрант 2-го курса Университета Самбрам*

*Узбекистан*

*Email: nigorax@554gmail.com*

*Телефон: +99897 436-06-27*

**Аннотация:** В современную эпоху стремительного развития экотуризм становится стратегическим направлением, сочетающим устойчивый экономический рост и охрану окружающей среды в глобальном масштабе. В данной статье анализируется передовой опыт таких стран, как Коста-Рика, Швеция, Германия и Непал, в развитии экотуризма и показаны пути его адаптации к условиям Узбекистана. В частности, предлагается создать в Узбекистане национальную систему экосертификации, внедрить механизм экологических платежей и обеспечить активное участие местных жителей в туристической деятельности на основе системы эконалога Коста-Рики, шведской практики экомаркировки и непальской модели экотуризма, основанного на сообществах (СВЕТ). Результаты исследования служат научно-практической основой для формирования стратегии устойчивого развития экотуризма в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Экотуризм, устойчивое развитие, международный опыт, экосертификация, местное сообщество, национальные парки, туристическая инфраструктура, экологический налог.



## ANALYSIS OF GLOBAL ECOTOURISM MODELS: ADAPTIVE IMPLEMENTATION STRATEGIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

*Khasanova Nigora Nizomovna*

*Jizzakh Regional Pedagogical Skills Center*

*Methodologist of the Methodological Service Department,*

*2nd year master's student of Sambhram University*

*Uzbekistan*

*Email: nigorax@554gmail.com*

*Phone: +99897 436-06-27*

**Abstract:** In the current fast-paced era, ecotourism is emerging as a strategic direction that combines sustainable economic growth and environmental protection on a global scale. This article analyzes the best practices of countries such as Costa Rica, Sweden, Germany and Nepal in developing ecotourism and shows ways to adapt them to the conditions of Uzbekistan. In particular, it is proposed to create a national eco-certification system in Uzbekistan, introduce a mechanism of environmental payments and ensure the active participation of local residents in tourism based on the Costa Rican eco-tax system, the Swedish eco-labeling practice and the Nepalese Community-Based Ecotourism (CBET) model. The results of the study serve as a scientific and practical basis for the formation of a strategy for the sustainable development of eco-tourism in Uzbekistan.

**Keywords:** Eco-tourism, sustainable development, international experience, eco-certification, local community. national parks, tourism infrastructure, environmental tax.

So‘nggi yillarda global iqtisodiy va ekologik kun tartibida ekologik turizm nafaqat turizm sanoatining ajralmas qismi, balki barqaror iqtisodiy o‘shish va atrof-



muhitni asrashni uyg'unlashtiruvchi strategik vosita sifatida tan olinmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, ekoturizm yillik o'sish sur'ati bo'yicha global turizm o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lib, ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, butun turizm bozorining 20-25% ini tashkil etmoqda.

Ekologik turizmning asosiy vazifasi – bu tabiiy muhitni o'rganish, uning saqlanishiga ko'maklashish va mahalliy aholining farovonligini oshirishdir.

Dunyoning turli mintaqalaridagi ekoturizmni rivojlantirish tajribalarini tizimli tahlil qilish orqali O'zbekistonning tabiiy hududlarida ushbu yo'nalishni rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan yo'riqnomalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ekologik turizmning ilmiy-nazariy asoslari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ekologik turizm konsepsiyasi 1987-yilda Hector Ceballos-Lascurain tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u ushbu konsepsiyani "tabiatga zarar yetkazmasdan mahalliy hamjamiyatlarning manfaatlarini ta'minlaydigan sayohat shakli" deb ta'riflagan.

Bundan tashqari ekoturizmning rivojlanish bosqichlari xususida olimlar tomonidan bir qancha izlanishlar olib borilgan. Jumladan, yetakchi tadqiqotchilar D. Weaver va M. Honey ekoturizmning uchta bosqichini belgilaydilar:

1. **Ekologik barqarorlik:** Tabiiy muhitga minimal salbiy ta'sir ko'rsatish va bioxilma-xillikni saqlash.
2. **Ijtimoiy-madaniy foyda:** Mahalliy jamiyatlarning iqtisodiy ishtirokini ta'minlash, madaniy merosni himoya qilish.
3. **Iqtisodiy samaradorlik:** Ekoturizmdan olingan daromadning muhofaza qilinadigan hududlarni boshqarishga qayta yo'naltirilishi.



Ushbu bosqichlar o‘z o‘rnida ekoturizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi “Tashrif buyuruvchini boshqarish” va “Yuk ko‘tarish qobiliyati” kabi ilmiy tushunchalarni doimiy ravishda monitoring qilishni taqozo etadi. Aholi turmushini yaxshilash, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin egallashda barcha sohalarda bo‘lgani kabi ekoturizmning ham ahamiyati beqiyos ekanini inobatga olgan holda xalqaro ekoturizm rivojlanish tajribasini tahlil qiladigan bo‘lsak, ta’kidlash joizki, Kosta-Rika global ekoturizmning namunasi hisoblanadi. Mamlakatning tajribasining o‘ziga xosligi **ekologik soliqlar**-davlat turizm va boshqa sohalardan tushgan mablag‘larning bir qismini o‘rmonlarni saqlash va bioxilma-xillikni himoya qilishga yo‘naltirish tizimini yo‘lga qo‘yganligi hamda **eko-sertifikatlashtirish**-turizm korxonalari ya’ni, mehmonxonalar va turoperatorlar uchun ekologik me’yorlarga qat’iy rioya qilishni talab etuvchi va ularni reytinglovchi majburiy tizim yaratilgani, bu esa sayyohlar uchun sifat kafolati va tanlov imkoniyatini berganligidir.

Shvetsiya va Germaniya kabi Yevropa davlatlarida esa ekoturizmning asosi standartizatsiya va eko-etiketlash hisoblanadi.

- **Sertifikatlashtirish tizimlari:** Shvetsiyada “Svan Ekolabel” (oqqush eko-etiketi) va “Natturturism i Sverige” (Nature’s Best) kabi milliy sertifikatlashtirish tizimlari joriy etilgan. Bu tizimlar turizm xizmatlarining energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va mahalliy madaniyatni hurmat qilish mezonlariga mosligini qat’iy tekshiradi.
- **Barqaror infratuzilma:** Milliy bog‘larda kam ta’sirli infratuzilma masalan, quyosh energiyasidan foydalanish va yig‘ma ekologik turar joylarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilgan.

Osiyoda ekoturizm tajribasi xususan, Nepalning tog‘li hududlardagi ekoturizm modeli Everest va Annapurna mintaqalaridagi Mahalliy hamjamiyatga asoslangan ekoturizm (CBET-Community Based Ecoturizm) ga tayangan.



Mamlakatda daromadni taqsimlash trekkingdan olingan daromadlarning katta qismi, ayniqsa, milliy bog'larga kirish to'lovlari mahalliy aholi tomonidan boshqariladigan loyihalar-maktab, tibbiy punkt va yo'llarni ta'mirlashga yo'naltiriladi. Shuningdek, gid va xizmatlarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, mahalliy aholi o'qitilib, professional gidlar, porterlar va kichik mehmonxona egalari sifatida faoliyat yuritadi. Bu o'z navbatida, ularning tabiiy resurslarni saqlashga bo'lgan shaxsiy manfaatini oshiradi.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston noyob cho'l ekotizimlari, tog' massivlari G'arbiy Tyan-Shan, Hisor, Zarafshon vohasi va Amudaryo sohillari kabi ulkan ekologik salohiyatga ega. Xalqaro tajribalarning O'zbekiston ekoturizmini rivojlantirish uchun ahamiyati beqiyos. Shu nuqtayi nazardan, yurtimizdagi imkoniyatlar va xalqaro tajribalar tahlili asosida O'zbekiston ekoturizmini rivojlantirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy choralar zarur deb hisoblaymiz:

| <b>Chora</b>               | <b>Xalqaro Model</b> | <b>O'zbekiston uchun taklif</b>                                                                                                                                                                                                           |
|----------------------------|----------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Boshqaruv Mexanizmi</b> | Kosta-Rika (CST)     | Milliy eko-sertifikatlash tizimini joriy etish (masalan, O'zbekiston Eko-Labeli).                                                                                                                                                         |
| <b>Iqtisodiy Mexanizm</b>  | Kosta-Rika (PES)     | Ekoturizm zonalari masalan, Zomin, Surxon hududlarida turistik to'lovlar va ekologik jarimalardan tushgan mablag'larni shu hududlarning ekologik loyihalariga cho'llanishga qarshi kurash hamda bioxilma-xillikni saqlashga yo'naltirish. |



| Chora                 | Xalqaro Model           | O‘zbekiston uchun taklif                                                                                                                                                                                                |
|-----------------------|-------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ijtimoiy Integratsiya | Nepal (CBET)            | Milliy bog‘lar atrofida CBET loyihalarini ishga tushirish. Zarafshon milliy bog‘i va Orolbo‘yi hududlarida mahalliy aholiga turistik xizmatlar yashash joyi, gidlik ko‘rsatish bo‘yicha imtiyozli kreditlarni ajratish. |
| Ma‘rifat va Marketing | Shvetsiya (Naturturizm) | “Eko-Ma‘rifat” dasturlarini ishlab chiqish. Sayyohlar uchun majburiy “Tabiatni asrash qoidalari” ni joriy etish va marketingda O‘zbekistonning ekologik toza yo‘nalish imidjini yaratish.                               |

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik turizmning samarali rivojlanishi ekologik barqarorlik, ijtimoiy adolat va iqtisodiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashga bog‘liq. Kosta-Rikaning ekologik soliq siyosati, Shvetsiyaning eko-etiketlash tizimi va Nepalning mahalliy hamjamiyatga asoslangan modeli O‘zbekiston uchun moslashtirilgan ekoturizm rivojlanish yo‘lini belgilashda muhim tajriba hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida milliy eko-sertifikatlash tizimini yaratish, turizm to‘lovlaridan tushgan mablag‘larni ekologik loyihalarga yo‘naltirish hamda mahalliy aholining faol ishtirokini rag‘batlantirish orqali ekoturizmni iqtisodiy jihatdan barqaror, ekologik jihatdan muhofazali va ijtimoiy jihatdan inklyuziv tarmoq sifatida rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, ekoturizmni davlatning hududiy rivojlanish dasturlariga integratsiya qilish



O‘zbekistonning global turizm bozorida ekologik brend sifatida tanilishiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ–21-son Qarori. “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
4. UNWTO (World Tourism Organization). *Sustainable Tourism and Ecotourism Development Reports*. – Madrid, 2023.
5. Honey, M. *Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise?* Island Press, 2020.
6. Ceballos-Lascuráin, H. *Tourism, Ecotourism and Protected Areas*. IUCN, 1996.
7. Weaver, D. *Sustainable Tourism: Theory and Practice*. Routledge, 2019.
8. Nepal Tourism Board. *Nepal Sustainable Tourism Development Project Report*, 2021.